



UDK: 81'1:811.111+811.512.133

*Kurshid SARIMSOKOV,*  
*Filologiya fanlari doktori, dotsent*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston*  
*E-mail: sarimsokov\_x@nuu.uz ORCID ID: 0009-0008-5258-7719*

*Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.d N. Xursanov taqrizi asosida*

## BASIC LINGUISTIC UNITS OF THE INTERPRETATION PROCESS

Annotation

This article examines the linguistic significance of the proper use of terminology in sports commentary. It analyzes the influx of new terms and neologisms into the language under conditions of modern socio-economic development, as well as their use in mass media. Special attention is given to the etymology of the concept of "term," its historical formation, and its development across different languages. The study highlights the role of terminology in ensuring accuracy, efficiency, professionalism, and expressiveness in sports commentary. It also outlines the main features of terms and the structure of the sports terminological field.

**Keywords:** term, terminology, sports commentary, lexicon, neologism, linguistics, accuracy, professional discourse, terminological field.

## ОСНОВНЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ ПРОЦЕССА ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистическая значимость правильного использования терминов в спортивных комментариях. Анализируются процессы проникновения новых терминов и неологизмов в язык в условиях современного социально-экономического развития, а также их функционирование в средствах массовой информации. Особое внимание уделяется этимологии понятия «термин», его историческому формированию и развитию в различных языках. Обосновывается роль терминов в обеспечении точности, оперативности, профессионализма и выразительности спортивного комментария. Также раскрываются основные признаки терминов и структура спортивного терминологического поля.

**Ключевые слова:** термин, терминология, спортивный комментарий, лексика, неологизм, лингвистика, точность, профессиональная речь, терминологическое поле.

## SHARHLASH JARAYONING ASOSIY LINGVISTIK BIRLIKLARI

Аннотация

Mazkur maqolada sport sharhlarida terminlardan to'g'ri foydalanishning lingvistik ahamiyati yoritiladi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida tilga kirib kelayotgan yangi terminlar va neologizmlar, ularning ommaviy axborot vositalarida qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, termin tushunchasining etimologiyasi, tarixiy shakllanishi va turli tillardagi rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Sport sharhlarida terminlarning aniqlik, tezkorlik, kasbiylik va ifodaviylikni ta'minlashdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqotda terminlarning asosiy belgilari hamda sport terminologik maydonining tarkibi ilmiy jihatdan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, sport sharhi, leksika, neologizm, lingvistika, aniqlik, kasbiy nutq, terminologik maydon.

Bugungi kunda yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli har bir sohaga yuksak e'tibor qaratilmoqda, shu jumladan, sport tizimidagi o'zgarishlar, islohotlar ham bundan mustasno emas. Bunday yangilanishlar natijasida tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar va neologizmlar oqimi yanada jadallashmoqda hamda ushbu birliklarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib berishda rang barang usullardan foydalanilmoqda. Bu jarayon esa o'z navbatida soha mutaxassislarining o'z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini, ularning mazmun-mohiyati haqida to'laqonli bilimga ega bo'lishlarini, qolaversa ularni o'rinli qo'llashini taqozo etmoqda.

Ayni paytda turli tizimli tillarda muayyan terminologik sistemalarning shakllanishi, rivoji va taraqqiy etishi hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida mutaxassislar tomonidan keng ko'lamli ilmiy ish, tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, terminologiyadagi munozarali muammolar hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan va ayni paytda o'z yechimini kutmoqda. Shu ma'noda termin tushunchasi atrofida sodir bo'layotgan turli xil yangiliklar, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarni, balki soha mutaxassislari va sharhlovchilarning ham birdek o'ziga jalb qilishi hozirgi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy sport sharhlarida terminlardan to'g'ri foydalanish lingvistik bir nechta maqsadlar uchun muhimdir:

1. Anglash: Terminlar tomoshabinlar va tinglovchilarga aniq bo'lmavchi bo'lgan tafsilotlarni tushuntirish orqali maydonda nima sodir bo'layotganini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. Aniqlik: Aniqlik (konkret) atamalardan foydalanish sharhlovchiga o'yinchi harakatlari, strategiyalari va natijalarini to'g'ri tasvirlash imkonini beradi, bu esa sharhning to'g'ri bayoni uchun muhimdir.

3. Kasbiylik: Kasbiy terminologiyani bilish va ulardan foydalanish sharhlovchining vakolati va ishonchini oshiradi, uning malakasini namoyon qiladi.

4. Tuyg'u va drama: Ba'zi atamalar bir lahzaning dramatikligini yoki voqeaning ahamiyatini ta'kidlab, sharhga hissiy izhillikni qo'shishi mumkin.

5. Tezlik va qisqalik: Terminlar sharhlovchiga ma'lumotni tez va samarali yetkazish imkonini beradi, vaqtni tejash tezkor sport turlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, sharh jarayonida sport terminlaridan to'g'ri foydalanish sharhning sifatini va uni tomoshabinlarning idrok etishini sezilarli darajada yaxshilaydi.

O'quvchiga tabiiy ravishda savol tug'iladi: Termin nima?

Etimologik jihatdan termin deb nomlanuvchi birlikning turli tizimli tillarda paydo bo'lishi, kelib chiqish tarixini taxminiy tarzda qayd eta olsak-da, yevropada o'rta asrlarda vujudga kelgan lotincha terminus so'zi va qadimgi yunoncha logos ("tushuncha", "ta'limot" ma'nosini bildirgan) so'zlarining o'zaro birikishidan

hosil bo'lgan, ya'ni terminologiya so'zining paydo bo'lishini termin so'ziga nisbatan avvalroq qayd etilgan[1]. Ilk manbalarda termin leksik birligi dastavval chegaralar ilohiyligi, keyinroq esa chegara toshi, so'nggi yoki tugallangan joy, manzil kabi bir nechta ma'nolarda qo'llanilgan. O'rta asrlarga kelib esa terminus so'zi (biror bir narsani) aniqlash va belgilash ma'nosida qo'llanilgan[2]. Tilshunoslik sohasida terminologiya birligining iste'molga kirishi va og'zaki hamda yozma nutqda qo'llanila boshlaganligi haqida bir nechta faktik-analitik ma'lumotlar mavjud. Ushbu birlik tilshunoslik tizimida ilk bor nemis tilshunos olimi Shults tomonidan 1786 yilda qo'llanilgan. Frantsuz tilida ushbu atama XVIII asrda paydo bo'lgan. Ingliz tili sathida paydo bo'lganligini aniqlash uchun Oksford lug'atiga murojaat qilinsa, inglizlarda terminologiya ya'ni terminologiya so'zi ilk bor 1801-yilda qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiliz[3]. Longmen (Longman) lug'ati mualliflari tomonidan esa terminus so'ziga term, ya'ni "termin" deb izoh berilgan[4]. Rus tili izohli lug'atlarida esa termin so'zi XVIII asrning birinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida XIX asrning birinchi yarmida rus tilida termin so'zi og'zaki va yozma nutqda bir oz farqli shaklda qo'llanilgan, ya'ni mazkur tushuncha umumiy nomlarni ifodalash vositasi sifatida ishlatilgan[5]. O'zbek tiliga esa o'tgan asrning birinchi yarmida rus tili orqali kirib kelgan. Shunday qilib, "termin" tushunchasi muayyan bir ma'noga, o'zining aniq ifodasi (ta'rifi)ga ega bo'lgan leksik birlikka aylandi.

Terminlarning yaralish va yaratilish xususiyati bilan bog'liq jarayonlar XIX asr boshlarida dunyo tilshunosligidagi yana bir yangilik deya e'tirof etila boshlandi. Tilshunos olimlar tomonidan terminning yaratilishi, lingvistik xususiyatlarini yoritish uchun turlicha yondashuvlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, G.Kitrij terminlarni matematik formulalar bilan taqqoslab: "Terminlar odamlar ma'lum bir maqsadda muloqot qilayotganlarida ishlatiladi", - deya qayd etgan[6]. Bu fikr hozirgi kunda o'zini oqlamaydi, chunki taraqqiyotning hozirgi bosqichida ifodalar, ishoralar, ilmiy va boshqa texnologik terminlar umumiste'molda qo'llaniladigan leksik birliklarning katta qismini tashkil etmoqda.

A.Shirmer terminologiyaning o'ziga xos mezonlarini aniqlash va uni lingvistikada muayyan bir soha sifatida tilning boshqa yo'nalishlardan chegaralab o'rganishga harakat qilgan hamda nemis tili lug'at tarkibini nutqda ifodalashiga ko'ra ikkiga ajratadi: umumiste'mol (ommaviy) leksika va maxsus leksika. Olim o'z tadqiqotida terminologiyaga bir qancha sohalarda, jumladan, odamlarning ijodiy faoliyatiga tegishli bo'lgan ma'rifiy soha hamda huquqiy-siyosiy, san'at va boshqa bir qancha sohalarda qo'llaniladigan leksemalarni kiritgan hamda terminologiyadagi bir qator muhim ahamiyatga ega xususiyatlarni ko'rsatib bergan. Biroq uning ishlarida terminologiyaning fanlararo integratsiyasiga ko'proq urg'u berilganligi tufayli terminologiyani professional (kasb-xunarga oid) leksika sifatida chegaralash, shuningdek, sohalar terminologiyasida sodir bo'ladigan determinologizatsiya, reterminologizatsiya va terminologizatsiya hodisalari yetarlicha asoslanmagan[7].

O'tgan asrning boshlarida terminlar ustida tadqiqotolib boruvchilar soni orta boshlandi. Jumladan, U.G.Paul so'zlar ma'nosining torayishi terminlarning paydo bo'lishiga zamin yaratishini qayd etgan[8]. Keyinchalik ushbu masalaga boshqa tomondan yondashgan A.A.Potebnya esa bunday muammolar terminologiyaga ta'sir etmasligini ta'kidlagan. Biznin fikrimizcha, U.G.Paulning fikrlari o'zi yashagan davrda o'z isbotini topgan bo'lishi mumkin, biroq hozirda

terminlar so'z ma'nosini torayishi natijasida emas balki taraqqiyot tufayli vujudga kelayotgan yangi ixtirolar, g'oyalarni terminlarni paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

J.Vandriyes: "Texnologik tillar yo yangi so'zlarni yuzaga keltiradi yoki odatiy muloqotdagi so'zlarning maxsus ma'noda ishlatilishiga sabab bo'ladi"[9], deya ta'kidlaydi. Tilshunoslikda "termin va so'z" muammosi ancha yillar oldin paydo bo'lgan, uning qo'llanilishi va ifodalanishiga nisbatan ko'plab tadqiqotlar kesimida olib borilgan bo'lsa-da, bu olimlarni hanuzgacha o'yantirib kelayotgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bilamizki, har qanday tilning boyligi shu til birliklari yig'indisi bilan o'lchanadi. Har bir birlik o'z shakli va mazmuniga ega bo'ladi. O'z vaqtda F.de Sossyur o'z ishlarida "til yaxlit tizim ekani va barcha lisoniy elementlar mazkur butunlikni hosil qilishini" bayon etgan edi [10].

O'tgan asrning boshlarida terminologiya sohasiga bo'lgan qarashlar sekin kengaya boshladi. Aksariyat olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida terminlar va so'zlar o'rtasidagi tafovut, ularning o'zaro farqli jihatlariga izoh berishga urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, bu masala oxirigacha to'liq o'rganilmagan.

Ingliz tilida ilk bor shotland leksikograf va etnograf olimi J.Myurrey boshchiligidagi (olim vafotidan so'ng 1919 yilda) nashr etilgan ingliz tili Oksford Lug'atida, termin so'ziga ilk bor "word or phrase used in a limited or precise sense" – tarj. "chegaralangan yoki aniq ma'noda ishlatiladigan so'z yoki ibora", - deya aniq yozma ta'rif berilgan.

O'zbek tili sohasida ilk bor, S.F.Akobirov 1969 yilda yozgan nomzodlik ishida termin so'ziga ilk bor e'tibor qarab "termin - muayyan doirada qo'llaniladigan maxsus so'z", - deya izohlaydi[11].

Davlatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan e'tibor, olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar mazkur soha terminologiyasining muttasil rivojlanib, tadrifiy takomillashuviga turtki bo'lmoqda. Zero, tilda har bir ob'yekt, hodisa, biror-bir faktini ifodalash zaruriyati ularni nomlash ehtiyojining borligi sababli asta-sekin, dinamik ravishda rivojlanadi. Shu ma'noda o'zbek tilining sport sharhiga doir lisoniy tizim birliklarini, xususan, tilimizga kirib kelayotgan ko'plab terminlarni tadqiq etish tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida "termin" ma'nosini ochib berishda quyidagi to'rtta belgisiga asoslangan mezonlar sanab o'tiladi:

- 1) termin – asosan ot so'z turkumidan tashkil topgan so'z yoki so'z birikmasi;
- 2) termin muayyan tushunchani aniq ifodalaydi;
- 3) termin asosan o'zi mansub soha doirasida ishlatiladi;
- 4) terminda ko'pma'nolilikka moyillik mavjud emas.

Biz terminlarni sharhlarda faolligini hisobga olib va ularning lisoniy xususiyatlaridan kelib chiqib, A.A.Reformatskiyning "Terminologik maydon muayyan soha doirasining terminlar majmuidir," degan fikriga qo'shilamiz. Ushbu fikrni o'z ilmiy tadqiqotimiz bilan uyg'unlashtirsak, jismoniy tarbiya va sport terminologik maydoni bu jismoniy sport (yengil va og'ir atletika), aqliy sport, jangovor sport, cho'p bilan o'ynaladigan sport, modelli sport, bellashuvli sport, xalqaro sport, mahalliy sport, aralash sport yo'nalishlarini birlashtirgan terminologik "maydoncha"lar majmui, deb xulosa chiqarish mumkin. Terminlarga fan va texnika taraqqiyoti mahsulati sifatida munosabatda bo'lsak, ular ilk bor nutq birligiga neologizm sifatida kiritiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tim T. Sports, history and culture. Sport and politics: From Thatcher to Cameron – Who will be next? – 2015. – R. 4-5.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-5- жилдлар. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
3. Мирзоев З. Спортивные термины в таджикском и английском языках: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2005. – 210 с.
4. Boatner M.T., Gates J.E. A Dictionary of American Idioms. – New York, 2005. – P. 452.
5. Крысенко С.М. Новейший Англо-русский, Русско-английский словарь. – Киев, 2007. – 426 с.
6. Greenough Kittredge. English Words Their Meaning in English speech. – London, 1923. – R.21-39.
7. Pavol S. The Oxford Handbook of Compounding – Oxford University Press, 2009.-R. 218.
8. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Изд. I I.– М.,1958. – Том IV. – 237с.
9. Yendres J. Choix detudes linguistiques et celtiques. – M., 1952. –R.102-109.
10. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики // Труды по языкознанию. –М., 1977. – 296 с.
11. Ақобиров Ф. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.– Ташкент, Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 25 с.
12. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринев В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994. – 408 с.